



Malika XAMIDOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi
E-mail: mirkomilatavullayev83@gmail.com

PhD N.Oymatova taqrizi asosida

O'LMAS UMARBEKOV ASARLARI TILINING GENDER XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada yozuvchi O'lmaz Umarbekov asarlari misolida o'zbek hikoya, qissalari tilining sotsiopragsmatik tadqiqida gender yondashuv masalasi, ayollar va erkaklar nutqiga xos jihatlar, lingvopoetikasi, qahramonlar nutqining leksik, frazeologik jihatdan xoslanishi xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Pragmatika, gender xususiyat, leksik jihat, frazeologik jihat, sotsiopragsmatik, sotsiopragsmatik, adresant, adresat, psixologik, intensiya, kommunikatsiya, vulgarizm.

ГЕНДЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЯЗЫКА ПРОИЗВЕДЕНИЙ УЛМАСА УМАРБЕКОВА

Аннотация

В статье рассматривается вопрос гендерного подхода в социопрагматическом изучении языка узбекского рассказа, социопрагматическом изучении языка писателя Улмаса Умарбекова, лингвopoэтике, лексико-фразеологической характеристике речи героев.

Ключевые слова: Прагматика, гендерный признак, лексический аспект, фразеологический аспект, социопрагматический, социопрагматический, адресат, адресат, психологический, интенция, общение, вульгаризм.

GENDER CHARACTERISTICS OF THE LANGUAGE OF OLMAS UMARBEKOV'S WORKS

Annotation

The article discusses the issue of gender approach in the sociopragmatic study of the language of Uzbek stories and stories, specific aspects of women's and men's speech, linguopoetics, lexical and phraseological characteristics of the characters' speech on the example of the works of the writer Olmas Umarbekov.

Key words: Gender feature, speech act, lexical aspect, phraseological aspect, sociopragmatic, metaphor, cognitive-pragmatic, addressee, addressee, psychological, intention, communication, vulgarism.

Kirish. Insonning obyektiv olamdagi barcha ijtimoiy xatti-harakatlari uning nutqiy faoliyatida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun inson nutqini o'rganish uning ma'naviy olami bilan tanishish imkonini beradi Adabiy asarning g'oyaviy-badiiy mohiyatini chinakam chuqur anglashga uning "birinchi elementi" - tilni tahlil qilish orqaligina erishish mumkin. Lingvistik va stilistik tahlillar badiiy asarni tushunish va o'qishning yuksak madaniyatini shakllantiradi, o'quvchining umumiy til madaniyatini yuksaltiradi, til hodisalariga ziyraklikni oshiradi hamda badiiy asarni san'at asari sifatida qabul qilib, estetik did tuyg'usining charxlanishiga hissa qo'shadi.

U insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida aks ettiruvchi nutqiy jarayon, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat, nutqiy vaziyatning ta'siri bilan aloqador masalalarni o'rganadi[1].

Zamonaviy tilshunoslikda til hodisalariga pragmatik va sotsiopragsmatik yondashuvlarning kirib kelishi faollashdi. Bu esa pragmalingvistik tilshunoslik orqali namoyon bo'ladi. Pragmalingvistik-tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amaliy tarmog'idir. Dunyo tilshunosligida matnga dastlab semantik va sintaktik nuqtayi nazardan yondashilgan bo'lsa, keyingi yillarda, asosan, XXI asr boshlaridan matnning pragmatik, lingvokulturologik, kognitiv, sotsiolingvistik va psixolingvistik qonuniyatlar asosida tadqiq etish jarayoni kuchaydi. Bunga bir tomondan, til, aloqa vositasi va ikkinchi tomondan, ijtimoiy ongning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan hodisa sifatida qaraladi. Badiiy asarni tushunish kitobxondan sinchkovlik, mantiqiy mulohaza, intuvitiv faraz va izchillikni, shu bilan birga, asar tiliga xos sotsiopragsmatik jihatlarini to'g'ri talqin qila olishni talab qiladi.

Badiiy asar tili (hikoyachi - muallif va personaj nutqi) tipiklashtirilgan, ya'ni umumlashtirilgan va individuallashtirilgan tildir. "Garchi bu til mehnatkash ommaning so'zlashish tilidan olingan bo'lsa-da, - deb uqitiradi M.Gorkiy, o'zining bosh manbayidan tamomila farq qiladi. Chunki, tasvirlash yo'li bilan ta'riflar ekan, yozuvchi o'zaro so'zlashishda ishlatiladigan barcha tasodifiy, vaqtincha kirib kelgan, mantiqsiz, fonetik jihatdan buzuq, turli sabablarga ko'ra asosiy "talabga", ya'ni umumxalq tili tuzilishiga to'g'ri kelmaydigan so'zlarni olib tashlaydi[2].

Shunisi e'tiborliki, har bir yozuvchi asarida so'z qo'llash jarayonida ham o'z uslubini namoyon qiladi - natijada bir yozuvchining tili ikkinchi yozuvchining tilidan ozmi -ko'pmi

farqlanib turadi. Masalan, Oybek romanlari tilida epiklikka, liriklikka moyillik sezilib tursa, A.Qahhor asarlari tilida esa kinoyalar, kesatliqlar, qochiriqlar ko'p uchraydi - unda hajviylikka moyillik bor. Chinakam san'at asarlari tili xalqchillik ruhi bilan sug'orilgan bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda san'at asarida qo'llanilgan har bir so'z, jumla, maxsus leksik resurslar va tasvir vositalari, poetik figuralar, so'z o'yinlari va hokazolarda ifodalangan fikrlar kitobxonlar ommasiga tushunarli bo'lishi - yozuvchi xalqning dilidagi, tilining uchidagini topib aytishi, xalq ruhi kayfiyatlarini, orzu -umidlarini ifodalashi kerak. Buning uchun yozuvchi, albatta, kitobiy til va uslubdan qochishi, jonli xalq tili va uslubiga yaqinlashishi lozim.

Xususan, o'zbek hikoyanavisligini novatorlik asosida boyitishga harakat qilgan O'. Umarbekov asarlarida har bir personajning o'ziga xos nutqi, nutqiy vaziyatning real tarzda ochib berilishi kitobxonda qiziqish uyg'otadi va buni har bir nasriy asarida o'zgaracha ruhdan ifodalashga harakat qilgan. Ilmiy tafakkur taraqqiyoti har qanday fan sohasidagi nazariy qarashlar o'zgarishiga, tadqiqotning yangi metodlari yaratilishiga va ushbu metodlar tadbiqida yangi nazariy g'oyalarga tayanish asosida tamoman o'zga amaliy natijalarga erishilishiga sabab bo'ladi. Ilmiy jarayondagi bunday o'zgarishlarga bosqich tahlili, nazariy xulosalarning uzluksiz tadqiqot jarayonida shakllanishi va tizimli joriy qilinishi natijasida yuzaga keladi. Shaxsning nutqiy holati vaziyat, saviya, ijtimoiy mavqe, yosh va hayotiy tajriba kabi ko'rinishlardan iborat, ularning har biri lisoniy birlikning nutqiy voqelanishiga ta'sir ko'rsatadi. Badiiy nutqda ushbu lisoniy birliklar badiiy-tasviriy vositalar orqali obrazli tarzda yoritib beriladi. Asarda ishtirok etayotgan har bir personaj xarakter xususiyatlarini nutqiy muloqot jarayonida oydinlasha boradi va asarning hayotiylikni ta'minlashga yordam beradi. Yozuvchining mahorati ham ana shunda ko'rinadi. Til doimo inson hayoti, uning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liqdir. Lisoniy belgining qanday ijtimoiy vazifa o'tashi, undan qanday foydalanishni bilishi uchun insonning qaysi ijtimoiy tuzumda yashashini ham e'tiborga olish bugungi kun tilshunosligining asosiy vazifalaridandir. Bugungi kunning yangi paradigmasi bo'lgan genderolingvistik o'zi bilan bir qator o'rganish obyektlarni olib kirdi. Badiiy asarni genderolingvistik jihatdan tahlil qilish, undagi obrazlarning gender xususiyatlarini o'ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi.

Genderologiyaning umumlingvistik mohiyatini belgilash uchun, avvalo, uning boshqa turdosh, chegaradosh sohalar bilan munosabatini, uzviy aloqadorligini ta'minlovchi jihatlarini, shuningdek, individual o'ziga xosliklarni aks ettiruvchi belgi xususiyatlarini aniqlash lozim. Dastlabki genderolingvistik tadqiqotlarda til vositalaridan foydalanishning gender xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratilib, gender parametrlarining tilshunoslikdagi o'rni o'rganishga jiddiy ahamiyat berilmas edi. Hozirgi kunda esa tilshunoslikda gender tadqiqotlarni amalga oshirishga qiziqish kuchayib bormoqda, shuningdek, tilning jamiyatdagi o'rni haqidagi g'oyalari ham tubdan o'zgardi. Gender hodisalarining nutq muloqot va lisoniy faoliyatda voqelanish jarayoni boshqacha mazmun va mohiyatga ega bo'lgan lisoniy hodisalar bilan mushtarakdir. Ma'lumki, so'zlovchi, qaysi jins yoki toifa vakili bo'lishidan qat'i nazar, hamma uchun yagona bo'lgan lisoniy tizimdan foydalanadi. Ammo, ta'kidlash o'rinliki, har bir shaxsning nutqiy yoki lisoniy qobiliyati va imkoniyat darajasi turlicha bo'lishi aniq. Badiiy matn, umuman, til birliklarini genderolingvistik tadqiq qilish bugungi kun tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir.

Gender - umumiy mazmuniga ko'ra erkak va ayollar o'rtasidagi farq. Tilshunoslikda gender xususiyatlarining o'rganilishida qiyosiy tahlil usullaridan unumli foydalanish kutilgan natijalarni berishi shubhasiz. XX asr ilm-fanga kirib kelayotgan gender tadqiqotlarda ikki jinsning o'ziga xos va mushtarak tomonlari tadqiqi turli sohalar, jumladan, iqtisodiyot, huquqshunoslik, pedagogika, sotsiologiya hamda tilshunoslik kabi fanning azaliy tarmoqlari negizida yangi bir yo'nalish sifatida rivojlanmoqda. Gender tilshunosligining asosiy tushunchalaridan biri gender stereotiplari atamasi hisoblanadi. Gender stereotiplari - bu ayol yoki erkakka xos barcha xususiyatlar tizimidir. Shu nuqtayi nazardan O'lmas Umarbekov asarlari misolida o'zbek hikoya, qissalari tilining sotsiopragmatik tadqiqida gender yondashuv masalasi muhim ahamiyatlidir. Yozuvchi O'lmas Umarbekovning hikoya, qissa janrlariga oid asarlari matnini sotsiopragmatik tahlil qilish orqali muallifning o'quvchiga ta'sir kuchini aniqlab olish imkoni paydo bo'ladi. Asardagi nutqiy aktlar tahlili qahramonlarning so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan xususiyatlarini, uning insonga ko'z ilg'amas darajadagi ta'sirini namoyon qiladi. Mazkur zamonaviy tahlil yo'li orqali asarlarning badiiy qimmatini, lisoniy vositalarning keng imkoniyatlarini ham teranroq anglash imkoniyati paydo bo'ladi. Badiiy asarlarda ayol va erkak nutqini farqlovchi turli lisoniy vositalar mavjud, shularni O'lmas Umarbekov asarlari misolida ko'rib chiqamiz. Masalan: Rahim Saidov o'rnidan turib, onasi qarshisiga yurdi.

— Rahimjon? Voy, bolamdan aylanay!.. — Hakima opa sumkani yerga qo'yib, quchog'ini ochdi. — Qachon kelding? Ko'zlarim to'rt bo'lib o'tiruvdim o'zim. Esonmisan, omonmisan? ("Yoz yomg'iri" qissasidan).

Tahlil. Hakima opa nutqida ko'proq yoshi ulug' ayollarni tilida uchraydigan nasihatimiz so'zlar qo'llanadi. Aylanay, esonmisan, omonmisan.

Xursandchilik vaziyati erkaklarda ham, ayollarda ham muayyan ijobiy kayfiyat bag'ishlovchi nutq birliklaridan foydalanishni taqozo etadi. Masalan, "Tuzuksan - ku, qizim? — dedi faxr bilan Yusuf aka. — Men buni raisga aytdim. — Hozir kerak emas, — dedi Samad. — Avval bitsin maket, keyin. — Obbo, qizim - ey, obbo qizim - ey, tuzuksan - ku! Yusuf aka sevinchini yashirmay, allamahalgacha yoshlarning oldida o'tirdi". ("Odam bo'lish qiyin" romanidan)

Erkaklar bilan ayollar so'rashishlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu jarayon ham o'zbeklarga xos odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya etilgan holda bo'lib qoladi. Ayollarning o'zaro salomlashishlari - bu alohida mavzuiy guruh bo'lib, o'zbek nutq va muloqot odobidan kelib chiqqan holda uning naqadar boy manbaga asoslanishini ta'kidlashimiz zarur. So'rashish jarayonining keyingi bosqichida suhbatdoshlar bir-birlarning hol-ahvoli bilan qiziqadilar. Odatda, o'zbek ayollari o'zaro uzoq so'rashishadi. Nutqimizda turg'un bo'lib qolgan so'rashish qurilmalaridan yozuvchi ham unumli foydaladi. Masalan, "Voy, bo'yingga qoqiy! Voy, sadag'ang ketay! Sen keladigan kun ham bor ekan - ku! Kampir yoshiga munosib kelmagan epehillik bilan o'rnidan turib, Abdullani quchoqlay ketdi.

— Voy, men o'lay seni tanimay! Indamay termilib o'tiribmon - a. Esonmisan, omonmisan? Nechuk, bolam, nechuk? O'zing keldingmi? Oying, adang eson - omonmi? — Voy, Abdulla - ey, voy, bolam - ey! Shunday qilib, o'zim keldim degim? Katta yigit bo'lib qolibsan, katta yigit! Dadang qalay? — Voy, tasaddug'ing ketay! Voy, qoqinging'ing bo'lay! Abdullajon bolam! Abdulla jilmayganicha egilib, ko'rishgani elkasini tutar ekan, Hojar buvi uni yuz -ko'zlaridan o'par,

og'zi tinmas edi.— Voy, o'zim o'rgilay! Voy, bo'yingga qoqay! Odami xavotirga qo'yib bu gal muncha hayalading? Esonmisan, omonmisan? Uyidagilaring eson - omonmi? Dadang tuzukmi? Voy, o'zim aylanay!" ("Odam bo'lish qiyin" romanidan)

Bu birliklar asar qahramonlari nutqining hayotiyiligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday nutqiy birliklardan mahorat bilan unumli foydalangan adibning yutug'i ham aynan shunda, deb o'ylaymiz.

Ayollarga xos xatti-harakatlar ifodasini namoyon etuvchi gender stereotiplarga quyidagilar kiradi: ohista qadam tashlamoq, hurkib yashamoq, lallaymoq, chimirilmoq, tug'moq, ko'kragini tutmoq, jon-jon deb tegishi mumkin, bevalikning taxir oshini totmoq, chimirilmoq, yuzini chetga burish, cho'chib tushmoq, sapchib ketmoq, yuragi o'ynab ketmoq, jilmaymoq, ohista, noz-u karashma qilmoq, tegmoq, yengil qadam bosmoq kabi. Misol tariqasida, "Endi lablari otquloqqa yetay deganda, Gulchehra, «voy!» dedi - yu, sapchib o'rnidan turib ketdi. Abdulla kuldi. — Yurakdan ham bor ekan -ku! — Uf! Cho'chib ketdim, Abdulla, sizmisiz? — Xuddi o'zi! — Qachon keldingiz? Shunaqa ham bo'ladimi odam degan? — Yomon qo'rqdingizmi? — Yuragim o'ynab ketdi".

Demak, biz tahlilga tortgan misollar faqat ayollarga xos tashqi ko'rinish va xarakterni ifodalovchi nutqiy birliklardir. Ma'lumki, ayol va erkak tanasi o'ziga xos tuzilishga ega, ana shu farqlanuvchi omillar badiiy matnda o'z ifodasini topgan.

Erkaklarga xos xatti-harakatlar ifodasini namoyon etuvchi gender stereotiplarga quyidagilar kiradi: irg'ib turmoq, mushtlashmoq, qitmirlik qilmoq, yotqizib-turgazmoq, ko'z qismoq, aysh qilmoq, maishat qilmoq kabi. Masalan, — Munisi bekor Toshkentga uzatdingiz, domla! Menga berganingizda hozir oldingizda bo'lardi, besh-oltita churvaqalar bilan. Manavi hezalak... uni xor qilgan!..Rahim Saidovning g'azabi qaynab ketdi. Borib basharasiga mush t solmoqchi bo'lganida odamlar sudrab olib ketishdi.

— Ko'nglingizga olmang, o'g'lim, — yupatdi Ubaydulla aka. ("Yoz yomg'iri")

Demak, erkak kishiga xoslikni bildiruvchi asosiy tashqi belgi xususiyatlarga gavdaning ayolnikiga nisbatan yirik bo'lishi, yelkalarining keng bo'lishi, oyoq -qo'lning baquvvat va uzun bo'lishi, yuz tuzilishi ayolnikidan tubdan farq qilishi, asosan, soql-mo'ylovning mavjudligidir. Bundan tashqari, faqat erkaklargagina xos bo'lgan xarakter xususiyati hamda muayyan xatti-harakatlar erkaklikning bosh va muhim ifodasi sifatida adib tomonidan qahramonlar tasvirida qo'llaniladi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, jamiyat omili kishilar ruhiyatiga o'z ta'sirini o'tkazibgina qolmay uning xarakterini ochishda ham muhim badiiy vosita sanaladi. Masalan: Ilaydi Madumar aka. — Har bozor basharangni ko'rsam, ko'nglim ayniydigan bo'lib qolibdi. Qir-pirangda podangni boqib yuravermaysanmi? Kerak odam o'zi topib oladi seni. Tag'in o'zing bilasan. Menga desa shu yerda yotib ol. YO'lda yakka o'zingsan, tag'in o'lib-netib qolmagin deyman-da, betamiz! — O'lsam bir musulmon topilar ko'mgani, — dedi o'zini bosib olib Saronboy ota. — Sendan Xudo o'zi saqlasin. Choydan urgan — kafandan ham urib qolasan. — Shunday demaysanmi? Mana, yangi damladim. Ich zaharingga! Madumar aka yangi damlangan choynakdan choy quyib, o'rtog'iga uzatdi, odam kam bo'lgani uchun o'zi ham yoniga o'tirdi. ("Qiyomat qarz" hikoyasidan)

Saronboy otaning yuqoridagi nutqlarida Madumar choyxonachiga qarab "O'lsam bir musulmon topilar ko'mgani", "Choydan urgan - kafandan ham urib qolasan" kabi gaplaridan bu otaxonning halol, vijdoni pok, birovni haqqidan qo'rqadigan xudojo'y insonligini sezish mumkin.

O'lmas Umarbekovning barcha asarlarida ham hayot falsafasi, haqiqatning shakli-u sham

Xulosa. Erkak va ayolning nutqi, dunyoqarashi, madaniyatidagi tafovutlarning tildagi ifodasi, asar matnida uchraydigan turli situativ vaziyatlarda erkaklar va ayollarning lisoniy ifodalari o'ziga xosligi gender tilshunosligining muhim jihatlaridan biridir.

O'lmas Umarbekov asarlarining sotsiopragmatik tadqiqi jamiyat a'zolarining dunyoqarashini, idrok, olamning lisoniy manzarasini aks ettiruvchi muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Adib asarlarini sotsiopragmatik jihatdan tadqiq etish o'zbek millatining ma'naviyati, milliy ongining o'ziga xosliklari, qadriyatlarini tizimi mohiyatini yoritishda muhim vosita bo'la oladi. O'lmas Umarbekov asarlari tilining badiiy-estetik funksiyalarini tilshunoslik aspektida o'rganish muayyan asar yaratilgan davr tilining o'ziga xosligi, adibning so'z boyligi, til vositalaridan foydalanish usullarini, shuningdek, jamiyat a'zolarining tildan foydalanish doirasidagi

jihatlarda mintaqaviy lahjalar, ko'p tillilik, til siyosati va tilga ijtimoiy ta'sirlarni tahlil qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, 2008.
2. Лапасов . Бадий матн ва лисоний тахлил. Тошкент, 2006. 34-б.
3. Ўлмас Умарбеков. Одам бўлиш қийин. Асар.-Т., 1970.
4. Ўлмас Умарбеков Қиёмат қарз. Асар. -Т., 1976.
5. Ўлмас Умарбеков. Ёз ёмғири Асар.-Т., 1973.
6. Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол.фан.номз.... дисс.– Тошкент,1994. – 168 б.;